



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

YUQORI SINF O'QUVCHILARI YOZMA NUTQIDA YO'L
QO'YILAYOTGAN IMLOVIY XATOLAR

Xolmurodova Gulruxsora

Axborot texnologiyalar va menejmen universiteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: *Bugungi kunda chet tillarini o'rganish zamon talabiga aylanayotgani ona tilini mukammal o'rganish va bilishni taqozo etadi. O'z ona tilisini mukammal bilgan, hech qanday xatolarsiz yoza va gapira oladigan insonning har qanday joyda o'rni va qadri bo'ladi. Ushbu maqolada buning ayni sabablari va yechimlarini yoritib bermoqchimiz.*

Kalit so'zlar: *Savodxonlik, yozma nutq, imlo qoidalari, imloviy va ishoraviy xatolar*

Imloviy savodxonlik masalasining dolzarbligi shundaki, maktab o'quvchilaridan tashqari, OTM talabalari va hatto amaliyotchi o'qituvchilar yozma nutqida ham turli darajadagi imloviy xatoliklarga yo'l qo'yilganini ko'rishimiz mumkin. Vaholanki, imloviy savodxonlik fikrning to'g'ri va ravon ifodalanishi bilan birga kishining madaniy-ma'rifiy saviyasini belgilovchi omillardan biridir. Fikrni ixcham va to'g'ri mantiqiy jihatdan asosli tarzda ifodalash uchun har bir madaniyatli xalq va uning barcha a'zolaridan imloviy va punktuatsion savodxonlik talab qilinadi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalaridan ona tili fanidan ta'lim berishning asosiy vazifasi sifatida quyidagilar belgilab qo'yilgan: o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgaralar fikrini anglashga, kompetensiyani rivojlantirish, o'quvchilarda grammatikaga oid bilimlarni shakllantirish va rivojlantirish hamda ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda fikrni to'g'ri va ravon bayon eta olish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Bu kabi xato bolalar nutqida kelib chiqmasligi uchun o'qituvchi va nutqiy muhitdagi barcha kishilar har bir so'zlariga e'tiborli bo'lishi kerak. Yo bolalar tomonidan biron so'zning qanday ma'no anglatishi haqida savol berishganda to'liq va tushunarli tarzda tushuntirish va bu xatoni oldini olish kerak. Hozirgi zamonaviy hayotimizda esa bolalarga har bir so'zni o'ylab gapirish zamon talabiga aylanib bormoqda. Sababi ular yanada intellektual salohiyati kuchli va tezda o'zlashtiradigan yetuk inson bo'lib shakllanib kelmoqda. Bu kabi xatolarni bartaraf etish uchun o'qituvchi har bir qo'shimchani, ayniqsa, kelishik va so'z yasovchi qo'shimchalarning ma'nolarini bildirib kelishini tushuntirib berishi kerak. Shu o'rinda ma'nodosh va shakldosh qo'shimchalar haqida ham biroz ma'lumot berib o'tamiz.

Sintaktik uslubiy xatolarga so'z birikmasi va gap tuzishga oid xatolar kiradi. Bunday xatolar juda ko'p. Ushbu xatoning kelib chiqishiga ham ko'p sabablar mavjud bo'lib, birinchidan, o'quvchining so'z boyligi juda ham kam bo'lishi, sinonimlar va olmoshlardan nutqlarida foydalana olmasliklari sabablidir.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Birinchi yechim. Bu jarayonda o'qituvchi ko'proq ona tili darslarida mavzu o'tish cho'gida o'g'zaki va yozma matnchalar tuzdirishi, agar vaqtda muammo bo'ladigan bo'lsa gaplar tuzdirishi va ularda o'quvchining so'zlarini qo'llash mahoratiga e'tibor qaratishi zarur.

Ikkinchi yechim. O'quvchilarga ko'proq ertaklar yoki kichik hikoyalar o'qitish, o'qituvchi ularga amaliy tarzda ularni tushuntirib berishi zarur bo'ladi va bu ham o'qituvchining nutqiy kamchiliklarini yo'qotishda samarali foyda berishi va ularni so'z boyligini oshiradi, fikrlarini tiniqlashtiradi. Bu jarayonda o'quvchi so'z ma'nolarini yaxshi tushunmaganligi uchun o'z o'rnida qo'llay olmasligi va shu bois bu xato ularning nutqida kelib chiqadi. Leksik xatolar xilma-xil bo'lgani uchun uni to'g'irlash va tushuntirish usullari ham turlicha.

Albatta, so'zlarning yozilishini kuzatish, ularning talaffuzi va yozilishi o'rtasidagi farqni qiyoslab tahlil qilish hamda orfografik qoidalarni o'zlashtirish orqali yozuvda ularni tatbiq qilish bo'yicha mashqlar bajarish kabi usullar o'quvchilarning imloviy savodxonligini oshirishda katta ahamiyatga ega. O'qituvchi bir yil davomida dars jarayonlarida orfografik qoidalarga asosan yoziladigan so'zlarning qanday yozilishi to'g'risida bilim berishi natijasida o'quvchining o'zlashtirilgan orfografik qoidalarga oid lug'at boyligi rivojlanadi. Dars jarayonlarida yozma ishlarni o'tkazish o'quvchilarning nutqini o'stirishga, fikrlash doirasining kengayishi hamda orfografik imlo qoidalarga asosan so'zlarni to'g'ri yozishga o'rgatadi. O'quvchining yozma nutqidagi imloviy savodxonligini rivojlantirish uchun o'qituvchi muntazam ravishda diktant yozdirib turishi nafaqat diktant, balki insho, bayon, esse, matn ustida ishlab gaplar tuzish kabi yozma ish va topshiriqlar o'tkazib turishi maqsadga muvofiq. "Ona tili darslarida o'quvchilarning imlo savodxonligini oshirishda diktantlarning ahamiyati kattadir. O'quvchilar tomonidan yozilgan diktant ular yo'l qo'ygan xatolarni va uning yuzaga kelish sabablarini aniqlashda ham o'qituvchiga yordam beradi. Diktant orqali o'quvchilarning grammatik mavzularni qay darajada o'zlashtirishlari ham aniqlanadi. Shuning uchun ona tili darslarida muntazam ravishda yozma ishning bu turidan samarali foydalanish va o'quvchilarning dars faoliyatiga chuqurroq olib kirish kerak. Dars jarayonlarida o'quvchilarga diktant yozdirish o'quvchilarning imloviy savodxonligini rivojlantirish hamda o'quvchilarning diktant yozishda yo'l qo'yadigan xatolarni bartaraf qilishda katta ahamiyatga ega. Shu sababli dars jarayonlarida o'quvchilarga mavzu yuzasidan muntazam ravishda diktant yozdirish zarur. Chunki o'quvchi diktant yozayotganda xato qilmasligi uchun orfografik va punktuatsion qoidalarni eslashga harakat qiladi. O'quvchilar yozma ish yozishda quyidagicha xatolarga yo'l qo'yishlari mumkin: "qo'pol"(jiddiy) va qo'pol bo'lmagan (juz'iy)xatolar uchrashi mumkin. Qo'pol, ya'ni jiddiy xatolar: dastur hajmi va talab darajasidagi ona tili hodisalarini yaxshi o'zlashtirmaslik, har bir sinf uchun mo'ljallangan va o'tilgan orfografik va o'tilgan qoidalaridan foydalanmasalik juda katta xatolika olib keladi.





**MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS**

Diktant, bayon va insho kabi yozma ishlar o'quvchilardan xotiraviy zo'riqish bilan butun diqqatini to'plab, matnni yozishni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayeva Q va boshqalar . Savod o'rganish darslari. Toshkent. 1996.
2. "O'zbek tilining imlosi" - A. J. Qodirov, 2002, "O'qituvchi" nashriyoti
3. "O'zbek tilida yozma nutqni o'qitish metodikasi" - A. X. Sobirov, 2010, "O'qituvchi" nashriyoti
4. "Yozma nutq va uning metodikasi" - N. T. Xo'jaeva, 2015, "Fan" nashriyoti

